

**BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA MAKTABGACHA TA'LIM  
TASHKILOTI, MAKTAB VA OILA HAMKORLIGI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH  
MAZMUNI**

**Sharipova Gulruksor Nurkabilovna**

**MTTDMQTMO instituti dotsenti,  
p.f.f.d.(PhD)**

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda maktabgacha ta'lim tashkiloti, maktab va oila hamkorlik faoliyatining mazmuni, ahamiyati, ta'lim tizimidagi uzviylikni ta'minlashning nazariy asoslari hamda amaliy ahamiyati tahlil qilingan.

*Kalit so'zlar:* bola, maktabgacha ta'lim, maktab, oila, yondoshuv, uzluksiz ta'lim, hamkorlik, tabiyalanuvchi, o'quvchi.

**Аннотация**

В данной статье проанализированы теоретические основы, содержание и практические возможности организации взаимодействия дошкольных образовательных учреждений (ДОУ) с другими типами образовательных организаций на основе кластерного подхода.

*Ключевые слова:* кластерный подход, дошкольное образование, непрерывное образование, сотрудничество, образовательное учреждение, интеграция.

**Annotation**

This article analyzes the theoretical foundations, content, and practical possibilities of organizing cooperation between preschool education institutions (PEIs) and other types of educational institutions based on a cluster approach.

*Keywords:* cluster approach, preschool education, continuous education, cooperation, educational institution, integration.

Ta'limda uzluksizlik va uzviylik muammosi har doim eng dolzarb va muhim masalalardan biri bo'lib kelgan. Maktabgacha ta'limda uzluksizlik bu tajriba va to'plangan bilimlar asosida bola shaxsini to'laqonli shakllantirishga qaratilgan, uning jismoniy va ruhiy jihatdan maktabgacha ta'limdan maktab ta'limiga tayyorlash bosqichidir.

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning zamonaviy bosqichida MTT uchun psixologik-pedagogik muammodan ulkan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifaga aylandi. Mazkur murakkab va mas'uliyatli vazifani bajarishda MTT pedagoglari va ota-onalar muhim rol o'ynaydilar. Bola maktabga chiqishi bilan uning hayoti yangi bosqichga ko'tariladi, o'yin faoliyati o'qish faoliyatiga almashadi. Yangi muhitga moslashish jarayoni boladan anchagina ruhiy va jismoniy ko'nikmalarni talab qiladi. Bu jarayonda bolaning ta'lim jarayonida muvafaqqiyatga erishishi asosan, uning maktab ta'limiga psixologik va ongli tayyorligiga bog'liq bo'ladi. Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, o'qituvchilar, ota-onalar va tarbiyachilar o'rtasidagi hamkorlik yaxshi o'rnatilgan, o'zaro tajriba almashish tashkil etilgan, MTT faoliyati doimiy tahlil qilinadigan taqdiridagina bolalarni boshlang'ich ta'limga tayyorlash darajasi ancha yuqori va boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining faoliyati samaradorligi yuqori bo'ladi. Bolalarni MTTda bo'lgan davrda maktab ta'limiga tayyorlash jarayoni kompleks olib boriladi. Unda uch jihatni ajratish mumkin: anatomik va fiziologik, psixologik va pedagogik, ta'limiy va tashkiliy. Bolani maktabga tayyorlash muammosining psixologik va

pedagogik jihatlarini hisobga olgan holda, MTT ichida 3 ta yo'nalishni ajratish mumkin. Birinchi yo'nalish MTTda barcha tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bilan bog'liq bo'lib, u bolani maktabga umumiy tayyorlashga qaratilgan. Bu yo'nalishda ta'lim-tarbiya jarayonini tegishli tartibda bolaning har tomonlama yetuk va barkamol to'laqonli shaxs qilib tarbiyalashga qaratiladi. Zamonaviy maktab birinchi sinfga qabul qilingan boladan nafaqat maxsus bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishnigina emas, balki aqliy tahliliy faoliyat, odob-axloq, mehnatsevarlik fazilatlarini yuqori darajada rivojlangan bo'lishini talab qiladi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim dasturi MTT pedagoglarini bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy, axloqiy, irodali, motivatsion va jismoniy tayyorgarlik kabi asosiy fazilatlarni shakllantirishga yo'naltiradi. Ammo, aynan ba'zi ota-onalar va o'qituvchilar bolani maktabga umumiy tayyorlashga emas, balki til va matematikani yaxshiroq o'rganishga ko'proq e'tibor qaratadilar. Albatta, bolalar ushbu fanlarni yetarlicha yaxshi o'zlashtiradilar ammo bu ularning umumiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari hozirgi zamonaviy maktablarning boshlang'ich sinflaridayoq musiqa, ashula, ritm, tasviriy san'at va dizayndan ham rasmiy mashg'ulotlar olib boriladi, bular ham bolaning umumiy rivojlanishiga murakkablik qiladigan mashg'ulotlar hisoblanadi.

Sentyabr oyida o'qituvchi qaysi bola o'qishni, qaysi sanashni, qaysi mashqlarni yaxshi yechishni va h.k.larni bilishini aniqlay oladi. Ammo o'qituvchini bu narsalar birinchi navbatda qiziqtirmasligi lozim. Maktab dasturini bolalarning yaxshi o'zlashtirishi bolaning aqliy rivojlanish darajasiga, uning qiyinchiliklarga bo'lgan munosabatiga, o'quv topshiriqlarini bajarishga bo'lgan mas'uliyatiga, voqelikka ongli yondoshuviga, qiziqishlarini rivojlantirishga, o'zi va tengdoshlariga bo'lgan munosabatlariga bog'liq. Aynan shu shaxsiy xususiyatlar boshlang'ich sinfda muvafaqqiyatli o'qish qobiliyatini belgilab beradi. Ammo, tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, birinchi sinfga kelgan bolalarning aksariyatida maktabda ta'lim olish muhimligi haqidagi mustaqil fikrlash qobiliyati yaxshi shakllanmagan. Bu esa bolalarning oilada ham, MTTda ham mustaqil ravishda qiyinchiliklarni yengishga odatlanmaganligi, bu ishni doimo ular uchun ota-onalar yoki tarbiyachilar bajarganligini bildiradi. Maktabda turli qiyinchiliklarga duch kelarkan, bola uning yechimini topishni bilmaydi. Bu esa MTTda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda uning shaxsiy rivojlanishiga ham alohida e'tibor qaratish lozimligini anglatadi. Tayyor ma'lumot olib o'rgangan o'quvchi tahsil olishga e'tiborsiz bo'lishga o'rganadi, notanish, noodatiy mashqlar, vazifalar berilganda o'zlariga nisbatan ishonchsizlik his etadilar, o'z ustida ishlashni istamaydilar. Xuddi shunaqa holatlardan bolaning jamoadagi, tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlarida, o'quv faoliyatida intilishlarida muammolar paydo bo'ladi.

MTTdan maktabga chiqish bola hayotida murakkab jarayon hisoblanadi, yangi ijtimoiy faoliyatga moslashish boladan ijtimoiy-psixologik va jismoniy tomondan ham tayyor bo'lishlikni talab qiladi. Bolaga maktabda kundalik o'yinlar o'rniga dars mashg'ulotlari bilan shug'ullanishi ruhiy hissiy jihatdan og'irlik qiladi. Shu sababli har bir MTT tarbiyalanuvchilarni maktab ta'limiga tayyorlayotganda albatta maktabgacha ta'lim va maktab ta'lim tizimi o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash, bolaning maktabga adaptatsiyasi jarayonini yengillashtirish maqsadida hamkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishi darkor. Bu hamkorlik quyidagi vazifalarni hal etishga qaratiladi:

1. Maktab, MTT va oila o'rtasidahamkorlik yo'nalishlarini o'rnatish.
2. Bolaning maktabga bo'lgan emotsional ijobiy munosabatini rivojlantirish va mustahkamlash.
3. Bo'lajak o'quvchining boshlang'ich ta'limga muvafaqqiyatli moslashishi uchun zarur bo'lgan shaxsiy xususiyatlarin shakllantirish.

Bolani boshlang'ich ta'limga tayyorlash, uni to'laqonli rivojlanishi bu uzoq vaqt va e'tibor talab etiladigan pedagogik jarayon hisoblanadi. MTT va maktab o'rtasida uzviylikni ta'minlash, belgilangan vazifalarni yechish maqsadida biz uchta asosiy yo'nalishni aniqladik:

1. Uslubiy ish
2. Ota-onalar bilan ishlash
3. Bolalar bilan ishlash.

Uslubiy ish tegishli uslubiy ta'minotni ishlab chiqish, maktabga ekskursiyalarni tayyorlash va o'tkazish, maktab haqida suhbatlar va o'yinlar tashkil etishni o'z ichiga oladi. Tarbiyachilar va o'qituvchilar o'zaro tajriba almashadilar, bolalar bilan olib borilgan ishlar natijalarini o'rganadilar, hamkorlikda tavsiyalar va normativ hujjatlar ishlab chiqadilar. Uslubiy ishlar turli shakllarda amalga oshiriladi: pedagogik kengashlar, tarbiyachilar va o'qituvchilar o'zaro mashg'ulotlarda ishtirok etish, davra suhbatlari, konferensiyalar, bolaning maktabga tayyorligini aniqlash maqsadida ota-onalar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish va h.k. Bolalarni boshlang'ich ta'limga tayyorlashda MTT pedagoglari ota-onalar bilan ishlashga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Ota-onalar bilan ishlash o'zaro hamkorlik munosabatlarini qo'llab-quvvatlash va saqlashga qaratiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. 2019-y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-y.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasi to'g'risida"gi №PF-60 sonli farmoni. –T.2022y.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 391-son qarori. –T.2019-y.
5. "Ilm yo'li" variativ Davlat o'quv dasturi. - T. 2020y.
6. N.Kayumova "Maktabgacha pedagogika" o'quv qo'llanma. – T.2014y.